



UO'K: 331.5-055.2:005.95/96

O'ZBEKISTONDA BOSHQARUV KADRLARINI TAYYORLASHDA XOTIN-QIZLARNING FAOLIYATIGA YANGICHA YONDASHUVLAR**НОВЫЕ ПОДХОДЫ К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЖЕНЩИН В ПОДГОТОВКЕ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КАДРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ****NEW APPROACHES TO WOMEN'S ACTIVITIES IN THE PREPARATION OF MANAGEMENT PERSONNEL IN UZBEKISTAN****Redjabova Dilnoza Maxammadikromovna**
O'zbekiston Respublikasi IIV mas'ul xodimi**Annotatsiya**

Maqolada ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Shuningdek ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. Bu esa xotin-qizlarning ham ishlab chiqaruvchi kuch sifatida mavqega ega ekanligi to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Аннотация

В статье вопрос женщин, их участие в общественно-политических отношениях, обеспечение их прав и свобод на практике является важным показателем развития государств и демократии. Также внимание к женщинам поднялось на уровень реальной государственной политики: фундаментально усовершенствовались ее правовые и институциональные основы. Это привело к появлению идей о том, что женщины также играют роль производительной силы.

Abstract

In the article, the issue of women, their participation in socio-political relations, the fact that their rights and freedoms are ensured in practice is an important index of the development of states and democracy. Also, attention to women has risen to the level of real state policy: its legal and institutional foundations have been fundamentally improved. This led to the emergence of ideas that women also have a position as a productive force.

Kalit so'zlar: ayollar, xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, gender**Ключевые слова:** Женщины, девушки, в социально-политических процессах, гендер**Key words:** Women, females, in social-political processes, gender**KIRISH**

Mamlakatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq. Shuning uchun ham mamlakatimizda aëllarning jamiyatdagi o'rne va rolini mustahkamlash, ularning bilimli, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish kabi masalalarga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. O'zbekiston aholisining qariyb 55 %dan ortig'ini xotin-qizlar qatlami tashkil etadi. Hozirgi kunda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, boshqaruv va ishlab chiqarish sohalarida 65 % dan ko'proq ayollar faoliyat yuritmoqda. Ularning jamiyatda tutgan o'rni, mavqei va huquqiy maqomi alohida e'tiborda bo'lib kelayotganligi haqiqat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Fuqarolik jamiyati qurilayotgan davrda ayol ona, rafiq, hamkasaba, siyosiy yetakchi va nihoyat rahbarlik o'rni qanday bo'lishi kerak, bu masalani biz barchamiz birgalikda o'ylashimiz, fikr qilishimiz, uning yechimlarini qidirishimiz davr talabidir. Kim olg'a yurmasa, u orqaga qarab ketadi. Hozirgi davr ayol kishidan faqat olg'a yurishni talab qiladi. Chunki ayol kishiga bunyod etishdek ulug' vazifa yuklatilgan. Bunyod etishlik esa taraqqiyot bilan bog'liq tushunchadir. Shu bois, XXI asr uchinchi o'n yilligi boshida yana bir bor ayolning jamiyatda tutgan o'rni haqida mulohaza yuritar ekanmiz, ayol va taraqqiyot o'zaro aloqador ekanligiga iqror bo'lamiz. Jamiyatda ayollarning tutgan

PEDAGOGIKA

o'rniga qarab demokratiya darajasini belgilash mumkin. Shunday fikr mavjudki, erkaklar siyosatga asli hayotni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun emas, balki biror narsaga, anig'rog'i yuqori mansabga sazovor bo'lish, ya'ni karyera qilish uchun intilar ekanlar. Ayollarning esa hayotdan bosh maqsadi yaxshi hayot kechirish bo'lar ekan. Ayollarda bunyodkorlik salohiyati kuchliroqdir. Shu bois, ayollar rahbarlikka ayni yaxshi hayot qidirib, uni yaratish uchun kelishi kuzatiladi. O'zbekiston xotin-qizlari harakatlaridagi sifat o'zgarishlari bir tomondan xotin qizlar harakatlarining o'zlariga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, hokimiyat va davlat tomonidan masalaning nechog'li muhimligini anglash, hamda ayollar harakatlarini doimiy qo'llab-quvvatlanishiga bog'liqdir. O'zbekistonning kelgusi rivojlanish strategiyasi belgilandi. Shu ma'noda ayollarni jamiyatni qayta qurish ishlariga keng jalb etish dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda, chunki ayollarsiz bunyod etilayotgan demokratiya haqiqiy demokratiya bo'la olmaydi. Shu bois, yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida mavjud xotin-qizlar harakatlarini bir necha davrlarga ajratish mumkin.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev barcha anjumanlarda xotin-qizlarga alohida e'tibor qaratib, ularning hurmatini joyiga qo'yish, ayniqsa qizlarimizning ta'lim-tarbiyasiga g'amxo'rlik qilish, ularning bilimli va munosib kasb egalari bo'lishi uchun sharoit yaratish, zamonoviy talablarga javob beradigan bilim berish yo'nalishlarini yanada takomillashtirish g'oyalari ilgari surayotganlaridan xalqimiz xabardorlar. Hozirgi kunda xotin-qizlarimiz barcha jabhalarda: —tadbirkorlik, —kichik biznes, —kasanachilik —hunarmandchilik tibbiyot sohasida, o'qituvchi-murabbiylik, xullas barcha-barcha sohalarda jonkuyarlik va fidoyilik bilan faoliyat ko'rsatayotganlari ta'kidlanmoqda.

Ayollarimizning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini kuchaytirish, ularning siyosiy huquqlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi tufayli ularning jamiyatdagi tutgan o'rne oshib bormoqda. Buni o'zbek ayoli ismi sharifi yoniga "O'zbekiston Qahramoni", "deputat", "senator", "tadbirkor", "direktor" atamaları qo'shib aytilishida, Zulfiya, — Nihol mukofoti sovrindori so'zlari qo'shib yozilishida ham his qilish mumkin. Har yili "Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan an'anaviy tarzda yosh iqtidorli qizlarimizga esa Zulfiya nomidagi davlat mukofoti berilgani ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, intellektual salohiyatini oshirishning yana bir amaliy ifodasidir.

Mamlakatimizning asosiy qonuni va boshqa hujjatlarda fuqarolar irqi, jinsi, millati, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, teng huquqli ekanligi keltirilgan. Shu bilan bir qatorda "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", — deb mustahkamlangan. Qonunlarimizda ayollarga, ayniqsa, bolali ayollarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatish, mehnatni onalik bilan uyg'unlashtirib olib borish uchun imkon beradigan muayyan yengillik va imtiyozlar belgilangan bo'lib, ularni amalga oshirish va rag'batlantirish kafolatlari mavjud. Aholi turmushining farovonlik darajasi, oilalar mustahkamligi, barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyat, ma'naviyat va madaniyat, ma'rifat, qo'yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo'shadigan hissasi va o'sha jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning nufuzi, mavqei, jamiyatda tutgan o'rne, ijtimoiy tafakkuri, siyosiy ongi butunlay o'zgardi. Ayol, nafaqat oila bekasi, balki jamiyatda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarning to'laqonli ishtirokchisi hamdir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan viloyatlarda hokimlar o'rinbosaridan biri xotin-qizlar hisoblanadi. Shuningdek, Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati, senator, mahallalarda maslahatchi va rais lavozimlarida muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatib kelaётgan xotin-qizlar soni anchani tashkil etadi. Hozirgi globalashuv davrida, milliy qadriyat va urf-odatlarimizni saqlab qolgan holda chetdan kirib kelaётgan zararli oqimlar va aqidaparastlik g'oyalari uzoq bo'lishimiz barobarida, yosh qizlarimizni turmushga tayyorlash, ularni ilmiy, ma'rifatli va xalqimizning urf - odatlariga to'la munosib ziyoli ayollari bo'lib shakllanishlarida yanada imkoniyat yaratish zarurati tug'ilmoqda. Ushbu vazifa va maqsadlarga erishmoq uchun mamlakatimizda xotin-qizlar Akademiyasi tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Agar tarixga nazar soladigan bo'lsak, bunday ko'rinishdagi Akademiya va o'quv muassasalari yurtimiz hududida azaldan mavjud bo'lib, muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritgan ekan. Jumladan, manbalarda keltirilishicha, hattoki VIII-IX asrlarda Movarounnahr madaniyati va ma'naviy haetida juda katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bergan, diniy ilmlar qatorida dunyoviy ilm-fan gullab-yashnagan. Bunday ijobiy o'zgarishlar, nafaqat O'rta Osiyo davlatlari hududida, balki butun musulmon sharqi tarixida o'chmas iz qoldirgan. Qolaversa,

Imom Buxoriy, Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino va Mirzo Ulug'bek kabi bobolarimiz ham avvalambor onalarining aqlu zakovati tufayli buyuk allomalar bo'lib yetishgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Jamiyatimizda xotin-qizlarning o'rnini va nufuzini oshirish, ularning oilalarini mustahkamlash, yosh avlodni vatanparvarlik, istiqloq g'oyalari sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, halqimizning ko'p asrlik boy ma'naviy merosini asrab-avaylash, ijtimoiy iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va aholini farovonligini ko'tarish borasidagi eng muhim masalalardan biri ayol, ona va opa-singillarni jamiyatdagi o'rnini va hurmatini ko'tarish hamda qadrlashdir. O'zbekiston diyori onalar, xotin-qizlar, opa-singillarni ardoqlashni davlat siyosati darajasiga ko'targan davlatlardan biridir. Bunga misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning —"Xotin qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini keltirish mumkin.

Oila va jamiyat ustuni, halqimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan.

Yurtimizda xotin-qizlarning qo'llab-quvvatlanayotganligi va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashib borayotganligini xotin-qizlar faoliyatining ustuvor yo'nalishlarida ham o'z aksini topmoqda.

Bunga birinchidan, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligi oshib borayotganligi;

ikkinchidan, xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatilayotganligi;

uchinchidan, xotin-qizlarning bandleligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlik va hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlanayotganligi;

to'rtinchidan, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni o'rnatib, ish olib borayotganligini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Xotin-qizlarning hokim va uning o'rinbosarlari lavozimlariga tayinlanishi har bir davr va hududdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy shart-sharoitlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. O'tish davrining murakkabligi, eskilik bilan yangilik o'rtasidagi ziddiyatlar, ichki va tashqi tahdidlarning oshishi boshqaruv tizimi oldiga duch kelgan kishi ham bajaravermaydigan, goho osoyishtalik, oilaviy farog'at, hatto jonidan kechib, fidoyilikka undovchi vazifalarni qo'yadi. Jamiyatni, kishilar tasavvurlarini yangilash hech qachon oson kechgan emas, u dadillikni, goho esa qattiqqo'llikni talab etadi. Bu o'rinda Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so'zsiz davom ettiriladi. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak".

Darhaqiqat, islohatlarni hayotga tadbir etish natijasida bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlatning g'amxo'rlik siyosati natijasida ayollar siyosiy jarayonlarda nafaqat faol ishtirokchi, balki jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyatimizda xotin-qizlar manfaatlarini himoya etishning huquqiy asoslari yaratilgan va tobora takomillashib bormoqda. Shunday ekan, gender tenglikni ta'minlash bobida olib borilayotgan islohatlar, yaratilayotgan sharoitlar xotin-qizlardan jamiyatdagi o'z o'rniga yanada mas'uliyat bilan qarash, o'z ustida ishlash, o'z iste'dodini, qobiliyatini, intellektual salohiyatini yanada oshirish uchun faollashishga chorlaydi. Bu jarayonlar esa o'z o'rnida haqli ravishda Uchinchi Renessans uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Demak, har

PEDAGOGIKA

doimgidek “ muhtarama ayollarimizga e’tibor va g’amxo’rlik ko’rsatish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib qoladi”¹⁷.

Yangilanayotgan O‘zbekiston davlati o‘z strategiyasida ayol shaxsiga o‘zini qurshab olgan ijtimoiy muhitning ta’sirini sustlik bilan emas, balki faollik bilan qabul qilishga, davlatda o‘z o‘rnini jamiyatning tarkibiy qismi sifatida his etishiga, yangi kelajakni yaratuvchi haqiqiy siyosat subyekti bo‘lishiga yordam beradi. Shunday ekan “jamiyatimizda tinchlik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib voyaga yetkazishda o‘rni beqiyos bo‘lgan xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy hayotimizdagi nufuzini yanada oshirishimiz zarur. Ular uchun munosib shart-sharoitlar, yangi ish o‘rinlari yaratish, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish, ularning salomatligini mustahkamlash, iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish bizning doimiy va muhim vazifamiz bo‘lib qoladi”¹⁸.

Ayniqsa, quyi va O‘rta pog‘onalardagi boshqaruv tizimiga xotin-qizlarni jalb etish, ularni rahbarlik lavozimlariga qo‘yish, mahalliy deputatlar Kengashlariga saylash kengaytirilishi darkor. Quyi va o‘rta pog‘onalarda tajriba orttirish, davlat boshqaruv texnologiyasini egallash xotin-qizlarni oliy davlat idoralarida ishlashga, davlat, mamlakat miqyosida ijtimoiy-siyosiy faoliyat olib borishga tayyorlaydi. Hech kim, xatto shaxs kuyi va o‘rta pog‘onalarda, rahbarlik lavozimlarida ishlaganida ham, o‘zidan o‘zi, darrov keng miqyosda ijtimoiy-siyosiy faoliyat olib borish san‘atini egallayvermaydi. Buning uchun katta bilim va hayotiy tajriba bilan birga, kishilarni boshqarishga oid tug‘ma fazilatlar, strategik vazifalarni bajarishga qodir, xislatlar ham zarur.

Davlat boshqaruv tizimini modernizatsiyalash nafaqat boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga, ijtimoiy-siyosiy institutlarni samarali, tez ishlashga undaydi. Modernizatsiyalash xotin-qizlarni yangi kasb-korlarni egallashga, menejment va marketing usullaridan xabardor bo‘lishga, personalni boshqarish san‘atini o‘rganishni taqozo etadi. Ayollar boshqarayotgan kichik korxonalar, firmalar, madaniy-maishiy xizmat uylari, oilaviy biznes-markazlar, ma’rifat-targ‘ibot ishlari olib boruvchi muassasalar yuzaga keldi.

XULOSA

Mazkur pozitiv tajribalar va izlanishlar xotin-qizlarda tashabbuskorlik, yangilikka intilish, ijodiy kuchlarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini amalda namoyon eta olish fazilatlarini mavjudligini ko‘rsatmokda. Kichik korxonalarini, guruhlarini, firmalarini boshqarishda xotin-qizlar erkaklardan qolishmaydilar, xatto ba’zi hollarda (masalan madaniy maishiy, ma’rifiy, tarbiyaviy, huquqiy xizmatlar ko‘rsatish markazlarini boshqarishda) erkaklardan ko‘ra ko‘proq topqirlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon etmoqdalar. Bugun biz qurayotgan zamonaviy demokratik jamiyatni barpo etishda erkaklar bilan tengma-teng mehnat qilayotgan faol va fidoyi opa-singillarimizning mehnati ham alohida tahsinga loyiq. Ayol qadrini qanchalik yuqori ko‘tarishga muayassar bo‘lsak, milliy g‘ururimiz, ma’naviyat va madaniyatimiz shu qadar yuksaladi, oilalarimiz barqarorligi ta’minlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ш.Мирзиёев. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистон барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир. “Ўқитувчи ва мураббийлар куни”га бағишланган нутқ. Т. 2020 йил, 1 октябр.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1992 йил 3-сон. – Б. 21

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1992 йил 3-сон. –Б. 21

¹⁸ Ш.Мирзиёев. Ўқитувчи ва мураббийлар- янги Ўзбекистон барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир. “Ўқитувчи ва мураббийлар куни”га бағишланган нутқ. Т. 2020 йил, 1 октябр